



UO‘K: 410.31.413.211(045)

TAQLID SO‘ZLARNING STATISTIK TAHLILI (O‘ZBEK TILINING IKKI VA BESH JILDLI IZOHLI LUG‘ATLARI MISOLIDA)**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИМИТАЦИОННЫХ СЛОВ (НА ПРИМЕРЕ ДВУХ-И ПЯТИТОМНЫХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА)****STATISTICAL ANALYSIS OF IMITATION WORDS (ON THE EXAMPLE OF TWO VOLUME AND FIVE VOLUME EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE)**

Xaydarova Xurshida Fayzulla qizi 
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ikki va besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da mavjud taqlidlarning umumiy statistikasi keltirilib, ularning ma‘no turi va izohi bilan bog‘liq farqli yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, ma‘nosi o‘xshash so‘zlar ayn. belgisi bilan taqlid so‘zlarga ishora sifatida berilgan o‘rinlar yoritilgan. Taqlid so‘zning takror shakli boshqa so‘z turkumi bo‘lib kela olishi tahlil qilingan. Barcha takror shakldagi taqlid so‘zlar sodda taqlid so‘zlar bilan umumiy ma‘no ifodalamasligi misollar orqali ko‘rsatilgan. Ikki marotaba nashr ettirilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘atlari”da mavjud taqlid so‘zlarni qiyosiy tadqiq qilish, statistik o‘rganish umumxalq tilidagi taqlid so‘zlarni lug‘atlarda qamrab olinish darajasini, ma‘no munosabatlarini, qo‘llanilish davri, foydalanilish doirasi, leksik imkoniyatlarini belgilashda ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan. Taqlid so‘zlarning har bir shakli va leksik ma‘nosi ishtirokidagi illyustrativ misollarni ko‘proq kiritish, so‘zning so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanilish o‘rinlariga alohida to‘xtalish, tilimizdagi taqlid so‘zlarni alohida sistema sifatida tasniflab o‘rganish, ularni maxsus pometa bilan kiritish masalasi ilgari surilgan.

Аннотация

В данной статье представлена общая статистика существующих подражаний в двух-и пятитомных “толковых словарях узбекского языка”, проведен сравнительный анализ различных подходов к их значению и объяснению. Также слова, похожие по значению на, со знаком мимикрия выделяются места, указанные как ссылки на слова. Анализируется, может ли повторяющаяся форма слова-подражателя оказаться другой группой слов. На примерах показано, что не все имитационные слова повторяющейся формы выражают общее значение с простыми имитационными словами. В “толковых словарях узбекского языка”, изданных дважды, освещены сравнительное исследование, статистическое изучение существующих подражательных слов, значимость подражательных слов в общенародном языке в определении степени их охвата в словарях, смысловых отношений, периода употребления, сферы употребления, лексических возможностей. Выдвигается вопрос о большем включении иллюстративных примеров с участием каждой формы и лексического значения подражательных слов, отдельном акценте на местах употребления слова в разговорной речи и художественном стиле, изучении подражательных слов в нашем языке, классифицируя их как отдельную систему, вводя их специальной пометкой

Abstract

In this article, the two-and five-volume “explanatory dictionaries of the Uzbek language” bring the general statistics of existing imitations, a comparative analysis of different approaches related to the type and explanation of their meaning. Also say words whose meaning is similar. the positions given as a reference to imitative words with the sign are illuminated. It has been analyzed that the repetition form of an imitation word can come from a different word category. The fact that all repeat-Form imitation words do not express a common meaning with simple imitation words is shown through examples. Published twice, the “explanatory dictionaries of the Uzbek language” shed light on the fact that the comparative study of existing imitation words, statistical study, is relevant in determining the degree of coverage of imitation words in dictionaries in the national language, the relationship of meaning, the period of application, the scope of use, lexical capabilities. The issue of more inclusion of illustrative examples with the participation of each form and lexical meaning of imitation words, a special focus on the places of application of the word in colloquial and artistic style, the study of imitation words in our language by classifying them as a separate system, their inclusion with a special pometa has been put forward.

Kalit so‘zlar: sodda taqlid so‘zlar, takroriy taqlid so‘zlar, izoh, illyustrativ misol, farqililik.

Ключевые слова: простые сравнения, повторяющиеся сравнения, объяснение, наглядный пример, различие.

TILSHUNOSLIK

Key words: simple imitation words, repeated imitation words, explanation, syllable, illustrative example, difference, similarity.

KIRISH

Leksikografiya sohasida amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri izohli lug'atlar yaratish masalasidir. Zero, izohli lug'atlarga tilning qanchalik mavjudligini va nufuzini ko'rsatib turuvchi asosiy manba hisoblanadi. Hozirda ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan katta o'zgarishlar, xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan turli aloqalar o'zbek tili va uning leksikasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Tilning leksik sathi doimiy o'zgarishda bo'lib, lug'at tarkibida yangi leksemalarning kirib kelishi, ayrimlarining eskirishi, yangi ma'nolarda qo'llanilishi yoki ma'no torayishi kabi hodisalar sodir bo'lmoqda. Har qanday tilning taraqqiyotida uning eng o'zgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksiksidir[6]. Jamiyatdagi rivojlanishlar umumiy izohli lug'atlarga o'zgartirishlar kiritish va yangilash zaruratini doimiy keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr o'zbek tilshunosligi uchun o'ziga xos rivojlanish davri bo'ldi. Ilgari yaratilgan izohli lug'atlar ko'proq ayrim mualliflarning, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlarni izohlashga qaratilgan bo'lsa, 40-yillardan boshlab leksikografiya tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida shakllanishi natijasida uning xilma-xil turlari maydonga keldi [1]. Tilshunos olimlarimiz tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilib deyarli barcha yo'nalishlarda lug'atlar yaratildi. Mazkur izlanishlar o'zbek tilining izohli lug'atlarini, shuningdek, turli yo'nalishlardagi lug'atlarni yaratishda asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Shu tariqa dastlab qariyb 60 000 so'zni o'z ichiga olgan 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981- yilda yaratildi. 2006-2008- yillarda esa ushbu lug'at 5 jildda ikkinchi marotaba yaratildi. Yangilangan lug'atda 1981- yilda yaratilgan lug'at materiallari asosiy o'rin egallaydi, biroq uning to'ldirilgan, qayta ishlangan, tuzatishlar kiritilgan nashri emasligi [5, 5] lug'at kirish qismida keltirib o'tilgan. Mazkur izohli lug'atdagi (2006-2008) imloviy, ishoraviy, uslubiy va tarkibiy qismlarining to'g'ri berilishi bilan bog'liq qator kamchiliklar tuzatilgan holda 2020 yilda yangidan nashr etildi. Biroq katta hajmda o'zgarishlar qilinmaganligi sababli 2006-2008 yillardagi izohli lug'atning to'ldirilgan nashri deb qaraldi. Hozirgi kunga qadar "O'zbek tilining izohli lug'ati" ikki marta yaratildi.

Izohli lug'atlar til foydalanuvchilariga qulaylik yaratish bilan bir qatorda, tilshunoslik sohasi va o'zbek tilining til sifatida rolini belgilaydigan asosiy manba hamdir. Izohli lug'atlar har yangilanganda tilshunoslik sohasida yangi bosqichni, yangi nuqtayi nazarlarni, ilmiy izlanishlarni boshlab beradi. Hozirda mavjud izohli lug'atlar umumxalq tilining asosiy leksik sathini qamrab oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"O'zbek tilining izohli lug'atlari"dagi (2 va 5 jildli) taqlid so'zlarni batafsil tadqiq qilishda statistik ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarni aniqlash umumxalq tilidagi taqlid so'zlarni qanchalik lug'atlarda qamrab olinganligini, ularning tavsifi, nutqdagi o'рни, foydalanilish doirasi, imkoniyatlarini belgilashda ahamiyatli hisoblanadi.

5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da **547** ta, 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da **611** ta taqlid so'z kiritilgan. 2006-2008 yillarda nashr ettirilgan 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'zbek tilining keng ko'lamli leksik qatlamini qamrab olishiga qaramasdan taqlid so'zlar hajmi 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga nisbatan ozchilikni tashkil qiladi. Izohli lug'atda (2 jildli) ko'pchilik sodda (bir asosdan iborat) taqlid so'zlar tuzilishiga ko'ra takror va juft so'z shaklida ham alohida lug'aviy birlik sifatida kiritilgan. 5 jildli izohli lug'atda esa ko'pchilik sodda taqlid so'zlarning takror shakli alohida so'z sifatida kiritilmagan, ba'zi o'rinlarda takror shakl sodda taqlid so'z tarkibidagi illyustrativ misollarda kiritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, izohli lug'atlarda leksik birliklar ma'lum bir so'z turkumi pometasi bilan yoki, aksincha, so'z turkumi qayd etilmagan holda beriladi. Izohli lug'atlarda taql.s. pometasi bilan berilgan so'zlar **262** ta **48%** (5 jildli), **242** tani **40%** (2 jildli) tashkil etadi. 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da pometa bilan berilgan taqlid so'zlar 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da belgilanganlariga nisbatan biroz ko'p.

Ba'zi so'zlar izohida ayn. belgisi bilan ularning aynan o'xshash varianti kiritib o'tilgan, ma'nodoshining taqlid so'z turkumi ostida berilishi o'z navbatida bu so'zlarning ham taqlid so'z turkumiga tegishliligiga ishora qiladi. Masalan,

GUP taql.s. *Polvonning kuchi oshib o'z raqibini aylantirib chunonan urdiki, u gup etib yerga yiqildi.* J.Sharipov, Xorazm.

GUP-GUP Gup s. takr. *Aravalardan gumburlab tosh-shag'al ag'darilishi, yangroq arra tovushi, bolg'a, bosqonlarning gup-gupi quloqni bitirardi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

GUPPA *Katta oqar suvni sira kechmagan qozoqiy cho'l oti qamchi zarbidan o'zini guppa daryoga tashladi.* A.Hakimov, Ilon izidan.

GUPPA-GUPPA q. **gup-gup.** *Vaqt o'tib yana darmoni keta boshladi. Ikki-uch qadam tashlamasdan, guppa-guppa yiqilaverdi [5].* O.Husanov, Hayot ishq.

Mazkur misollar ichida **gup** so'zi taql.s. pometasi bilan berilgan. Qolgan so'zlar **gup** so'zi bilan bir xilligiga ishora mavjud. Bundan anglashiladiki, qolgan so'zlar ham taqlid so'z turkumiga mansubdir. Biroq **gup-gup, guppa, guppa-guppa** so'zlarini taqlid so'z turkumiga oidligini **gup** so'ziga qiyosan aniqlash foydalanuvchidan qo'shimcha vaqt olishi yoki noqulaylikni keltirib chiqarishi, o'zga til vakillari uchun esa mavhumlikni va chalkashlikni yuzaga chiqarishi mumkin. Izohli lug'atning yangi nashrlarida mazkur holatlarni kengroq izohlash orqali leksik birliklarning ma'nosini yanada oydinlashtirishga erishish mumkin.

G'ING taql.s. *Poshsha "g'ing" desa eshitiladigan jimjit hovli.* Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.

G'IRING g'iring demoq ayn. g'ing demoq q. **g'ing.** *Zebo opa, haligi yana g'iring deganda, dabdalasini chiqarib, o'sha yerga ko'mib kelar edik-da, - dedi kimdir Adolatning orqasida.* S.Zunnunova, Gulxan.

G'IRING-PIRING g'iring-piring demoq ayn. g'iring demoq q. **g'iring.** *G'iring-piring desalar, tushuntiraman deb, gap sotib o'tirishning hojati yo'q.* H.Shams, Dushman.

G'IRING-G'IRING ayn. **g'iring-piring.** *Sho'ring qursin-da, xotin.. g'iring-g'iring qilasan, na gapingning ipi bor, na bog'ichi [5].* Hamza, Parani sirlari.

Ushbu so'zlar ichida ham **g'ing** so'zi taql.s. tarzida kiritilgan. Qolgan so'zlar **g'ing** so'ziga birlashtirilgan. *G'iring, g'iring-piring, g'iring-g'iring* so'zlari taqlid so'z turkumiga oidligi ular birlashtirilgan so'zlarga qiyosan anglashilmoqda.

Aksariyat hollarda izohli lug'atlarda taqlid so'zlarning takror shakli pometasiz berilgan o'rinlar uchraydi. Sodda shakli bilan bir xilligi, shu tarzda ma'noni aniqlashtirish nazarda tutilgan. Masalan,

QIRT taql.s. *Tursunoy tugmagulni ikki barmoq orasiga olib, qirt etib uzdi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

QIRT-QIRT *U boshini qirt-qirt qashigancha eslashga urindi.* N. Maqsudiy, Laylatulqadr.

QISIR taql.s. *U o'tirgan stul qisir etdi.*

QISIR-QISIR *O'zim tashiyotgan aravalarning qisir-qisiri eshitildi.* H.Nazir, Cho'l havosi.

VIT taql.s. *Bedananing "vit" degani-qochgani* Maqol.

VIT-VIT *Har tomondan "vit-vit", "chig'i-chig'i" deb sayragan qushlarning turli qo'shiqlari soyning nash'asiga mos bir muzika hosil qilgan.* P. Tursun, O'qituvchi.

ZIR taql.s. *Ruhli, kuchli ko'krakdan chiqqan bu ashula tevarakni zir ettirib yuborgudek, Otabekka ham boshqacha bir ta'sir beradir.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

ZIR-ZIR *Zir-zir qaltiragan Gulnor sho'rvani nari-beri suzib keldi [5].* Oybek, Tanlangan asarlar.

Mazkur holatga boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, ushbu nazariyaga qarshi holatlar ham mavjud. Sababi ba'zi hollarda taqlid so'zlarning takrori boshqa so'z turkumi vazifasida kelishi va aslidan farqli ma'no anglatishi mumkin. Masalan,

AR-AR II ar-ar terak. *Piramidasimon terak; shoterak. Taxta ko'prikning narigi tomoni.. yangi binolar bo'lib, oldilariga qator ar-ar teraklar ekanlar.* A.Qodiriy, Obid ketmon [5,93].

GULDUR-SHALDIR rvsh. *Guldurab, shoshilinch ravishda. Mulla Obid cho'chib ketadi. Berdi tatar guldur-shaldir hujraga kirib keladi.* A.Qodiriy, Obid ketmon [5,519].

JIQ-JIQ 2 Kuchli, shiddatli. *Qorong'ida hujraning u boshidan bu boshiga sudralib, jiq-jiq solishayotgan Janish juda kuchdan ketdi.* H.Shams, Dushman [5,96].

LIQLIQ Mol, qo'y, buzoqlarning kalla-pochalaridan ziravorlar qo'shib, mildiratib uzoq qaynatib, so'ng suyaklaridan ajratib tayyorlanadigan yaxna taom [5,502].

PAQPAQ I Bolalarning bir bo'lak loyni piyola shakliga keltirib, to'ntarib yerga urib paqillatish o'yini.

TILSHUNOSLIK

| |
|---|
| <i>Paqpaq o'ynamoq.</i> PAQPAQ II Ko'sakka o'xshash, ichi bo'sh mevali ko'p yillik o'simlik [5,244]. |
| TAQIR-TUQUR 2 Qaqir-ququr, lash-lush(lar). Har yerda siniq-miniq idishlar, taqir-tuqurlar, har xil jihozlar ayqash-uyqash bo'lib yotardi. Oybek, Quyosh qoraymas [5,37]. |
| CHAKCHAK Ugra shaklidagi xamirni yog'da qovurib, ustidan asal quyib tayyorlanadigan shirinlik. <i>Bunday mo'rt xamirdan pechenye, chakchak, o'rama kabi taomlar tayyorlansa, og'izda uqalanib turadi.</i> K.Mahmudov, O'zbek taniq taomlari [5,448]. |
| CHAPCHAP Yupqa, shaparak nonning turi. <i>[Kampir] Sopol laganda tuxum qovurdoq bilan qozonga yopgan ikkita chapchap non keltirdi.</i> G'.G'ulom, Shum bola [5,460]. |
| CHAQCHAQ Xursandchilik, xushchaqchaqlik bilan qilingan suhbat; hangoma. <i>Bolalarning qiziq suhbat, chaqchaqi.</i> Q.Muhammadiy. <i>Supalarga, so'rilarga to'shalgan sholcha, gilamlarda odamlar chaqchaqi tinmaydi.</i> H.Numon va A.Shorahmedov, Ota [5,470]. |
| CHUG'UR-CHUG'UR 3 <i>rvsh.</i> O'zaro suhbat, guring. <i>Ona-bola chug'ur-chug'ur qilib, oshga damtovoqni bostirishgach.. hovliga tushishdi.</i> Gazetadan [5,519]. |
| SHATIR-SHUTUR 2 <i>rvsh.</i> Tezlik bilan, hash-pash deguncha. <i>Shatir-shutur ish qilmoq. Xatni shatir-shutur yozib tashlamoq</i> [5,554-555]. |
| SHAQIR-SHUQUR 2 Har xil mayda-chuyda narsalar; qaqir-ququr, lash-lush. <i>Shuncha shaqir-shuqurlarni yig'ib nima qilasiz?</i> [5,560] |
| SHOV-SHUV 2 G'ala-g'ovur, shovur-shuvur, shovqin. <i>Shu vaqt negadir birdan shov-shuv, qiy-chuv ko'tarildi.</i> J.Sharipov, Xorazm [5,588]. |
| QU-QU 2 <i>bol.</i> Qush; tovuq. <i>"Qu-qu" ushlab beraman deb bolani yupatmoq</i> [5,396]. |

Zamon o'tishi bilan tildagi ba'zi so'zlar dastlabki anglatgan ma'nolaridan tashqari yana boshqa yangi ma'nolarni ifodalay boshlaydi [2]. Ayrim taqlidiy so'zlarning takrori ma'lum narsa, belgi kabilarning o'zini anglatishi mumkin: chakchak (ovqat nomi) kabi. Bir so'z holiga kelib qolgan bunday birliklar takroriy shakllik xususiyatini yo'qotgan bo'ladi [4]. Yuqorida keltirilgan misollar taqlid so'zlarning takror shakli ayrim hollarda boshqa so'z turkumiga o'tishi va yangi ma'no ifodalashi mumkinligiga ishora qiladi. Shu sababli barcha takror shakldagi so'zlarning ma'nosini har doim ham sodda shakli izohiga bog'lab bo'lmaydi. Taqlid so'zlarning asl ma'nosini tovush yoki holatga taqlidan tasavvur qilish o'zbek tilida ravon so'zlasha oladigan, nutqi boy bo'lgan omma uchun muammo tug'dirmaydi, albatta. Biroq lug'atdan foydalanuvchilarning yoshi va imkoniyatlarini hisobga olishimiz, ya'ni kichik yoshdagi foydalanuvchilar, ma'lum bir guruh vakillari, shuningdek, xorijiy til foydalanuvchilari uchun bir qator mavhumlikni va chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkinligini e'tiborimizdan chetda qoldirmasligimiz kerak.

XULOSA

Til sathi ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi sababli unda doimiy yangilanish, o'zgarishlar sodir bo'ladi. Tilning barqaror emasligi mavjud lug'atlar ustida doimiy izlanishlar olib borishni, yangiliklar kiritishni taqozo etadi. Mazkur maqolamizda "O'zbek tilining izohli lug'atlari"da (2 va 5 jildli) mavjud taqlidlarning umumiy statistikasini aniqlab (pometal va pometasiz berilganligiga ko'ra tasniflab) yangilik sifatida kiritdik. Shuningdek, barcha takror shakldagi taqlid so'zlar sodda taqlid so'zlar bilan umumiy ma'no ifodalamasligini yoritib berdik.

Lug'atning birlamchi vazifasi hozirda o'zbek adabiy tilining leksik boyligini to'plash va tavsiflash bo'libgina qolmay, uning me'yorlarini belgilash va barqarorlashtirishdan ham iborat. Bir paytning o'zida u nutq madaniyatining yuksalishiga ham xizmat qiladi [3,18]. Kelgusida yaratiladigan izohli lug'atlarda so'zlarning semantik tahlili to'liq yoritilishi kerak. Taqlid so'zlarni taql.s. pometas bilan kiritish orqali so'zning semantik ma'nosini oydinlashtirish, turli ma'no nozikliklarini anglash imkonini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нурмонов А. (2002). Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т.: Ўзбекистон, 192-193.
2. Пинхасов П. (1969). Ҳозирги ўзбек адабий тили, Лексикология ва фразеология. Т.: Ўқитувчи, 42.
3. Сабирова Э. (2022). "Ўзбек тилининг изохли луғати"да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Фил.фан. бўйича фалс.докт...дис. ToshDO'TAU. Т. 18.
4. Сапаев Қ. (2009). Ҳозирги ўзбек тили. Низомий номидаги ТДПУ, Т.
5. Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдли. (2006-2008). Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
6. Ҳожиёв А., Аҳмедов А. (1981). Ўзбек тили лексикологияси. Т.: Фан.